

TURLI MADANIYATLARDA QAYNONALAR HAQIDAGI IJTIMOIY TASSAVURLAR

Ergasheva Dilafruz Oybek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Psixologiya (Social Psychology)” yo‘nalishi

2-kurs magistranti.

Tel. +998880090773

E-mail. @dilafruzxudoyazarova0773

Annotatsiya. Har bir xalqning oilaviy tuzilmasi, undagi rollar va munosabatlar tizimi o‘ziga xos madaniy qadriyatlarga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan qaynona obrazi ko‘plab jamiyatlarda muhim ijtimoiy ramz sifatida shakllanib, oilaviy hayotning ajralmas elementiga aylangan. U ko‘pincha oilaviy tajriba va donolik timsoli, avlodlar o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa sifatida e’tirof etiladi, biroq ayrim hollarda kelin–qaynona o‘rtasidagi tarbiyaviy yoki maishiy kelishmovchiliklar sababli ziddiyat manbai sifatida ham talqin qilinadi. An’anaviy oilalarda esa qaynonaning mavqei odatda yuqori bo‘lib, u oilaning boshqaruvchisi, kelinning moslashuvi va tarbiyasiga mas’ul shaxs sifatida qaraladi. Dunyoning turli mintaqalarida, jumladan Sharq, G‘arb va Afrika jamiyatlarida qaynonalarning mavqei, kelin–qaynona munosabatlarida shakllangan me’yorlar, avlodlararo ziddiyatlarning madaniy ildizlari hamda bunday holatlarni yumshatish strategiyalari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu tadqiqot mazkur farqlarni o‘rganish orqali qaynonalarga oid ijtimoiy tasavvurlarni madaniyatlararo nuqtai nazardan tahlil qiladi hamda ularning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, ijtimoiy va an’anaviy omillarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: Qaynona kelin munosabati, madaniy qadriyatlar, patriarxal oila tizimi, gender roller, shaxslararo muloqot madaniyati

Annotation. The family structure of every nation, along with the roles and relationships within it, is based on unique cultural values. From this perspective, the image of the mother-in-law has become an important social symbol in many societies. She is regarded not only as a figure of family experience and wisdom, but also as a connecting link between generations, and at times as a source of familial conflict. In traditional families, the mother-in-law is often viewed as the manager of the household and the mentor responsible for guiding the daughter-in-law. In the cultures of various countries, including those of the East, the West, and African societies, the status of mothers-in-law, the expectations in mother-in-law–daughter-in-law relationships, the cultural roots of intergenerational conflicts, and the strategies for mitigating such tensions are interpreted in different ways. This study analyzes these differences and

examines social perceptions of mothers-in-law from a broader intercultural perspective.

Keywords: mother-in-law and daughter-in-law relationship, cultural values, patriarchal family system, gender roles, interpersonal communication culture.

Аннотация. Семейная структура каждого народа, а также роли и отношения внутри семьи основываются на уникальных культурных ценностях. С этой точки зрения образ свекрови во многих обществах превратился в важный социальный символ. Её рассматривают не только как носителя семейного опыта и мудрости, но и как связующее звено между поколениями, а иногда — как источник семейных конфликтов. В традиционных семьях свекровь часто выступает в роли руководительницы дома и наставницы невестки. В культурах различных стран, включая Восток, Запад и африканские общества, статус свекрови, ожидания в отношениях между свекровью и невесткой, культурные корни межпоколенческих разногласий и способы их смягчения трактуются по-разному. Данное исследование раскрывает эти различия и анализирует общественные представления о свекровях с более широких межкультурных позиций

Ключевые слова: Отношения свекрови и невестки, культурные ценности, патриархальная семейная система, гендерные роли, культура межличностного общения

Introduction. Qaynonalar haqidagi ijtimoiy tasavvurlar har bir xalqning madaniy qadriyatlari, gender rollari, oilaviy tuzilmasi va avlodlararo munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Insoniyat jamiyatlarining aksariyatida qaynonaning mavqei nafaqat oilaviy munosabatlar, balki jamiyatdagi ayollar o‘rni va avlodlar o‘rtasidagi kuch munosabatlari haqida ham muhim ma’lumot beradi. Qaynonaga nisbatan shakllangan tasavvurlar tarixiy jarayonlar, diniy e’tiqodlar, iqtisodiy hayot usuli va an’anaviy ijtimoiy institutlar bilan uzviy aloqada shakllangan bo‘lib, turli madaniyatlarda turlicha ma’no kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki qaynona kelin o‘rtasidagi murakkab munosabatlar jahonning barcha mamlakatlarida uchraydi. Ayrim mamlakatlarda bu muammoni hal qilishga erishilgani aytiladi. G‘arb, Sharq va Afrika davlatlaridagi qaynona–kelin munosabatlari bir-biridan keskin farq qiladi va bu farq asosan oilaning tuzilishi, jinsiy rollar, madaniy qadriyatlar va o‘zaro munosabatlar tizimi bilan belgilanadi. G‘arb modeli — shaxsiy erkinlik va tenglikka, Sharq modeli — an’ana va ierarxiyaga, Afrika modeli esa — jamoaviylik va katta avlod nufuziga asoslanadi. Har bir modelning o‘ziga xos afzalliklari bo‘lsa-da, zamonaviy oila uchun G‘arbning mustaqil yashash an’analari, Sharqning hurmat qadriyatlari, va Afrikaning jamoaviylik ruhi uyg‘unlashgan holatda eng maqbul

ko‘rinishni yaratadi. Markaziy osiyo va sharq madaniyatlari hususan o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz oilalarida qaynona instituti kengaygan oila modeli (ko‘p avlod birga yashashi) qaynonaning mavqeini kuchaytirib qaynona ko‘pincha “uy bekasi, an‘ana saqllovchi, tarbiyachi” sifatida tasavvur qilinadi. Qaynona kelinning hayotiga kuchli ta‘sir qilib: uy ishlari, kiyim-kechagi, muomala madaniyati, hatto ijtimoiy doirasiga qadar aralashadi. Kelin “yangi oila tizimiga moslashuvchi shaxs” sifatida ko‘riladi. Bunda qaynona esa ko‘pincha yo‘l-yo‘riq beruvchi. Madaniy stereotiplari og‘zaki ijodda qaynonaga doir ikki xil obraz mavjud:

“Mehribon, odobli, oqila qaynona” — kelinni qizi kabi ko‘radigan.

“Qattiqqo‘l, talabchan, sinovchi qaynona” — uy ishlariga, axloqqa qat‘iy e‘tibor beruvchi. Hozirgi kunda Nuklear oilalar ko‘payib, kelin-qaynona masofasi o‘smoqda. oshlarda “ota-onadan alohida yashash” tendensiyasi kuchaymoqda. Qaynona ijtimoiy aralashuv darajasi ham pasaymoqda.

Janubiy Osiyo (Hindiston, Pokiston, Bangladesh) mamlakatlarida qaynona-kelin munosabatlari — eng kuchli ijtimoiy institutlardan biri Ko‘p holatda kelin urning oilasiga ko‘chib boradi. Kelin uyga kirganida "uyga xizmat qiluvchi" sifatida qabul qilinadigan holatlar mavjud. Hindistonda turmushga chiqqan qiz qaynonasining har bir so‘zi o‘zi uchun qonun ekanini anglab yetishi kerak. Qaynona o‘ziga berilgan “huquq”ni suiist’yemol qilish holatlari ham uchrab turadi. Bu o‘z navbatida, jinoyatga yetaklaydi. Vaziyat shu darajaga borib yetganki, rasmiylar qaynonalar uchun maxsus qamoqxona ochishga majbur bo‘lishgan. Ulardagi qolib ketgan stereotiplar Qaynona — uy hokimi, nazoratchi, tajribali ayol. Kelin — yosh, bo‘ysunuvchi, moslashuvchi. Hindistonda ziddiyatlarning asosiy sabablaridan qadim-qadimdan kelinning oilasi kuyovning oilasiga qalin to‘laydi. Shu sababli ham qaynonalar “bu an‘anaga sodiq qolish kerak”, degan fikr bilan yashaydilar. Tahlilchilarning fikricha, rasmiy statistikaga ko‘ra, har yili 5000–7000 qiz ta‘magirlikning qurboniga aylanadi. Ularning ko‘pchiligi oilasi qalin to‘lay olmagan uchun o‘z jonlariga qasd qilishgacha boradi. O‘z joniga qasd qilishga esa qaynonalarning zulmi majbur qiladi. Buning uchun qaynonalar sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinib, maxsus qamoqxonaga yuboriladi. So‘nggi vaqtlarda kelinlar qaynonalariga qarshi turishga intilishmoqda. Kelinlar “eng yaxshi himoya - bu hujum” aqidasiga amal qilishmoqda. Buning natijasi o‘laroq, qaynonalar ham birlashishga qaror qilishdi. Ayni damda o‘z huquqlarini himoya qiluvchi qaynonalar uyushmasi tashkil etilgan.

Yaqin sharq (Arab, Turkiya, Eron) Arab davlatlarida oilaviy tizimi asosan patriarxal va kengaygan oila modeliga tayangan: bir hovli ichida bir nechta oila yashashi — qaynona-kelin munosabatini kuchaytirgan. Ayollarning ijtimoiy roli ko‘proq uy boshqaruvi, bolalarni tarbiyalash va uy ichidagi ta‘limotga rioya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan. Qaynona oilaning markaziy ayoli sifatida katta hokimiyatga ega bo‘lib Kelin ko‘pincha “oil qadriyatlariga moslashish”dan o‘tgan: kiyinish, ovqat

tayyorlash, erga xizmat qilish, jamoa ichidagi odob-axloq qoidalari. Ba'zi hududlarda kelin qaynona rahbarligida bo'lgan va mustaqillik kamroq. Bu munosabatda e'tiqod, shariat qoidalari, urf-odat kuchli rol o'ynagan. davlatlarida esa qaynona ko'pincha o'g'ilning eng yaqin maslahatchisi bo'lib, kelinning oila madaniyatiga moslashuvini boshqaradi

Turkiya jamiyatida qaynona–kelin munosabatlari tarixan kengaygan oila (g'arbiy Anadoluda ayniqsa) keng tarqalgan. Qaynona ko'pincha uyning boshqaruvchisi, kelindan esa intizom va itoat kutiladi. Kelinlar ko'pincha ozgina vaqt sinov davridan o'tgan — uy ishlarini bilish, oilaga moslashish. Turkiyada qaynona-kelin munosabati madaniy o'ziga xoslik ko'pincha hissiy va o'zaro bog'langan. Ko'plab an'anaviy mavzularda kelin qaynona oldida muloyim, so'zga kiruvchi bo'lishi kerak. Qaynona kelinni uyga moslashtirishni o'z vazifasi deb biladi. Hozirgi kunga kelib shaharlashuv, ta'lim va iqtisodiy mustaqillik tufayli qaynona-kelin mojarolari kamaymoqda. Ko'plab oilalar alohida yashashni afzal ko'rmoqda.

Eron jamiyatida qaynona–kelin munosabatlari madaniyat va dinga tayangan bo'lib patriarxal-iroqi modelga asoslanadi, bunda oila markazi erkak bo'lsa-da, qaynona uy ichidagi ayollar orasida yetakchi rolni o'ynaydi. Shi'a madaniyati oilaviy ierarxiyani mustahkam ushlab turadi. Qaynona kelin munosabatida qaynona ko'pincha oila ichida tajribali, dono ayol sifatida ko'riladi. Kelin odatda qaynona bilan uy ishlarini bo'lishadi, tarbiya masalalarida maslahat oladi, oila qoidalariga amal qiladi. Ayniqsa qishloq hududlarda kelinning mustaqilligi kamroq. Bugungi kelib Eron shaharlarida yoshlar ko'pincha alohida yashashadi. Ayollarning ta'limi oshgani sayin kelinlar mustaqil qaror qila boshlagan. Mo'jarolar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlarda ko'tariladi, lekin rasmiy tadqiqotlarda bu munosabatlar oila ierarxiyasining davomiyligi sifatida ko'rsatilgan.

Koreyada qadim-qadimdan “katta o'g'il ota-onasi bag'rida qolishi kerak”, degan an'ana bor. Bu an'ana ota-onalar keksayganda katta o'g'il yordam berishini nazarda tutadi. Shu sababli ham katta kelin murakkabliklar bilan to'qnash keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Koreyada qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlar hamon murakkabligicha qolmoqda. Hozirgiga qaraganda, an'analarga ko'proq itoat qilingan 1974 yilda o'tkazilgan so'rovda qatnashgan qizlarning atigi 13,4 foizi katta o'g'ilga turmushga chiqish xohishi borligini aytgan edi. Ulardan hech kim yakka o'g'ilga turmushga chiqish niyati borligini aytmagan. 2010 yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari koreyslarning turmush tarzi o'zgarmaganini oydinlashtirdi. Mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlar qaynonaga itoat qilishni xohlamaydi. Bu o'z navbatida, turli mojarolarga sabab bo'ladi. Qaynona bir vaqtlar o'z qaynonasiga bo'ysingani kabi kelini ham o'ziga xuddi shunday bo'ysinishni istaydi. Biroq g'arbona tarbiya ko'rgan kelin qaynonaning xizmatkori bo'lishdan o'zini olib qochishga urinadi.

Albatta, qaynona–kelin munosabatlari sogʻlom, ijobiy va madaniy jihatdan yetuk shakllangan boʻlgan davlatlar ham bor. Ular koʻpincha oila ichidagi shaxsiy erkinlik, psixologik madaniyat, avtonomiya va oʻzaro hurmat prinsiplari bilan ajralib turadi.

Gʻarb jamiyatlarida qaynona–kelin munosabatlari asosan shaxsiy erkinlik, mustaqillik va psixologik masofa tamoyillariga asoslanadi. Odatda yosh oilalar alohida yashaganlari sababli qaynona aralashuvi minimal boʻladi. Gʻarb oilalarida qaynona va kelin “ikki teng huquqli shaxs” sifatida qabul qilinadi. Mojarolar kam uchraydi, chunki chegaralar madaniy qadriyat sifatida eʼtirof etilgan. Norvegiyada yoshlar allaqachon ota-onalaridan alohida yashashga oʻrganib boʻlishdi. Oilada kattalar va kichiklar oʻrtasidagi munosabatlar tenglik asosiga qurilgan. Shu sababli ham bu mamlakatda kelinlar qaynonalaridan biror bir maslahat yoki topshiriq olishga odatlanmagan. Kelinlarning oʻzlari ham koʻmak soʻrab qaynonalariga murojaat qilishmaydi. Yoshlar oʻz muammolarini oʻzlari hal qiladi. Mabodo qandaydir muammo paydo boʻlib qolsa, kelin-kuyovlar ota-onalariga emas, balki psixologga yordam soʻrab, murojaat qilishadi. Kelin erining yaqin qarindosh-urugʻlari bilan kamdan-kam hollarda - unda ham oilaviy tadbirlarda uchrashadi.

Meksikadagi vaziyatga havas qilsa arziydi. Bu mamlakatda qaynona kelin gʻavgʻosi yoʻq. Ular bir-birlari bilan oʻzaro dugonaga aylanib ketishlari aytiladi. Kelin oʻz qaynonasiga nozik sirlarini aytishi odatiy holdir. Oʻz navbatida, qaynona oʻgʻli va keliniga har tomonlama yordam berishga intiladi. Bu turli maishiy muammolarni hal qilishga va mojarolarning oldini olishga hissa qoʻshadi.

Qaynona–kelin oʻrtasidagi munosabat oilaning psixologik iqlimini belgilovchi eng sezgir sohalardan biridir. Turli davlatlar tajribasiga tayangan holda quyidagi tavsiyalar munosabatlarni yanada iliq, konstruktiv va sogʻlom qilishga yordam beradi. Gʻarb tajribasi asosida shaxsiy hududga va mustaqillikka hurmat nazarida qarash yosh oilalarga alohida qaror qabul qilish imkonini berish. Uy ichidagi masalalarda kelin va oʻgʻilning mustaqil tanlovini hurmat qilish Haddan tashqari aralashmasdan tanqidiy yoʻllar bilan emas albatta yumshoqlik bilan maslahat berish. Ochiq muloqot quloq solish madaniyatini shakllantirish, bir-birini toʻxtatmasdan tinglash. Psixologlar buni “emosional intellekt” asosida samarali aloqa deb ataydi. Qaynona oʻz bilimni “buyruq” emas, tajriba sifatida ulashishi. Kelin – qarindosh emas, oila qizi sifatida qabul qilinishi. Juda yaqinlik ham, ortiqcha sovuqlik ham mojaroga olib kelishi mumkin. Konfliktga sabab boʻluvchi stereotiplarni kamaytirish: “Kelin har narsaga chidashi kerak” “Qaynona buyruq berishi kerak” kabi qarashlar zamonaviy jamiyatga mos emas. Qaynona koʻp hollarda oʻgʻilning mustaqil boʻlishini qiyin qabul qiladi kelinning yangi oilaga moslashish bosqichi stress bilan kichadi. vaziyatni toʻgʻri qabul qilishni shunday vaqtlarda toʻgʻri yoʻl koʻrsatib unga vaqt berishligi kerak.

Taqqoslash shuni koʻrsatadiki, madaniyatlar qanchalik ochiq va moslashuvchan boʻlsa, qaynona–kelin oʻrtasida nizolar shunchalik kam kuzatiladi. Jamiyatlarda

individual psixologik chegaralar hurmat qilinsa, ayollarning ijtimoiy mavqei mustahkam bo'lsa va oilaviy rollar aniq taqsimlansa, o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash va ijobiy munosabatlar shakllanishi osonlashadi. Shu boisdan, zamonaviy oilalar uchun ijtimoiy-psixologik savodxonlikni oshirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, har ikki tomonning huquq va mas'uliyatlarini aniq belgilash, shaxsiy chegaralarga rioya qilish va qadriyatlar xilma-xilligini hurmat qilish kabi mexanizmlar munosabatlarni yanada sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Madaniyatlar taqqoslanishi shuni ko'rsatadiki, eng barqaror oilaviy tizim — bu an'ana va zamonaviylik o'rtasida muvozanat topa olgan tizimdir.

References:

1. Abu-Lughod, L. (1999). *Veiled Sentiments: Honor and Poetry in a Bedouin Society*. University of California Press.
2. Al-Hassan, S. (2017). Family relations and women's roles in Arab patriarchal communities. *Journal of Middle Eastern Studies*, 53(4), 612–628.
3. Çelik, A. (2019). Traditional family structure and female roles in Turkish society. *Anadolu Social Sciences Review*, 11(2), 45–58.
4. Friedl, E. (1989). *Women and the Family in Rural Iran*. Syracuse University Press.
5. Hofstede, G. (2001). *Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations*. Sage Publications.
6. Axmedova, Z. (2015). *Oila psixologiyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
7. Karimova, N. (2018). *Oila va shaxs rivojlanishi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Rustamov, B. (2020). Oila ierarxiyasi va avlodlararo munosabatlar. *Psixologiya va ijtimoiy ishlar jurnali*, 2(3), 45–53.
9. Qodirov, S. (2017). *Kelin-qaynona munosabatlari va oilaviy konfliktlarni boshqarish*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Toshpulatov, A. (2019). Madaniyatlararo oilaviy munosabatlar. *O'zbekiston psixologik ilmiy jurnali*, 4(1), 12–24.